

**FUQAROLIK SUDLARDA KELISHUV BITIMINI
RASMIYLASHTIRISH TARTIBI O'ZIGA XOS JIHATLARI**

Karimova Mohigul

*O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik sudlarda kelishuv bitimini rasmiylashtirish tartibi o'ziga xos jihatlarga ega. Taraflar kelishuvga yetishishdagi shartlarni sudga taqdim qiladilar va sud o'z qarorini qabul qilish orqali ularni tekshiradi. Tasdiqlangan kelishuv sud qarori sifatida qabul qilinadi va uning bajarilishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Kelishuv bitimi, da'vogar, javobgar, mediativ kelishuv, ashyoviy va yozma dalillar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022-yil 20-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomalarida ta'kidlaganlaridek, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog'onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o'zgarishi kerak. Agar shunday qilmasak, muammolarni ko'rib, ko'rmaslikka olsak, zamondan orqaga qolamiz. Xalqimiz, yosh avlodimiz bizdan rozi bo'lmaydi. Shu bois, "Avval - inson, keyin -jamiyat va davlat" degan g'oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o'tishga qodir bo'lgan milliy davlatchiligidan asoslarini mustahkamlashimiz zarur. Davlatimiz rahbarining ushbu so'zlarining ijrosini ta'minlash yo'lida bir qator chora -tadbirlar amalga oshirildi. Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputatlari tomonidan "O'zbekiston Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi tayyorlanib, yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining to'liq matni qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida joylashtirilib, "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish haqida"gi 2023 yil 10 martdagি 3017-IV-sonli hamda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Senatining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi 2023 yil 14 martdagи SQ-702-IV-sonli qarorlariga muvofiq, 2023 yil 30 aprel kuni "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha referendum o'tkazildi. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilinib, qonun 2023 yil 1 mayda kuchga kirdi.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan mamlakatda qonun ustivorligini ta'minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish va jamiyatda adolatni qaror toptirishda odil sudlov alohida o'rinn tutishini e'tiborga olgan holda, mazkur qonunning qabul qilinishi so'nggi yillarda sud-huquq va boshqa sohalarni tubdan isloh etishga qaratilgan keng qamrovli olib borilgan islohotlarning davomi bo'ldi. Ko'rinish turganidek, Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar odil sudlov sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, fuqarolik sud ishlarida yarashtiruv institutini takomillashtirish ham ana shu maqsadga erishishga qaratilgan. Ya'ni, yarashtiruv institutini takomillashtirilishi uni qo'llashda qulayliklar yaratib, uning keng qo'llanishiga asos bo'ladi. Shu yo'l bilan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda nizolarning katta qismini tinch yo'l bilan hal qilishga erishiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 44-moddasida da'vo ishini yuritishda taraflar sud protsessining har qanday bosqichida ishni kelishuv bitimi tuzish yoki birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar mediativ kelishuv tuzish orqali tugallashga haqli bo'lgani ko'rsatilgan.

Ushbu kodeksning 226-moddasida belgilanishicha, da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligi, javobgarning da'vogar talablarini tan olganligi yoki taraflarning kelishuv bitimi shartlari sud nomiga yo'llangan, ishga qo'shib qo'yiladigan yozma arizalarida ifoda etilgan bo'lishi lozim bo'lib, bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi.

Mediativ kelishuv sudga alohida hujjat tarzida taqdim etiladi va ishga qo'shib qo'yiladi, bu haqda sud majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi.

Da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilishdan yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin sud da'vogarga yoki taraflarga tegishli protsessual harakatlarni amalga oshirish oqibatlarini tushuntiradi.

Da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilish to'g'risida yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash haqida sud ajrim chiqaradi, bir vaqtning o'zida ushbu ajrim bilan ish yuritishni tugatadi.

Arz qilingan talablar javobgar tomonidan tan olingan va bu sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, ularni qanoatlantirish to'g'risida hal qiluv qarori chiqariladi.

Sud tomonidan javobgarning arz qilingan talablarni tan olishi qabul qilinmagan yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash rad qilingan taqdirda, sud bu haqda ajrim chiqaradi va ishni mazmunan ko'radi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 276-moddasida har bir sud majlisi to‘g‘risida, shuningdek sud majlisi zalidan tashqarida qilingan har bir alohida protsessual harakat to‘g‘risida bayonnomaga tuzilishi belgilangan.

Ushbu kodeksning 277-moddasida sud majlisi bayonnomasida ish muhokamasining yoki alohida protsessual harakatlarni amalga oshirishning barcha muhim jihatlari aks ettirilishi kerakligi, sud majlisi bayonnomasida sud majlisi bo‘lib o‘tgan yil, oy, kun va joy; sud majlisi boshlangan va tamomlangan vaqt; ishni ko‘rayotgan sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, hamda sud majlisining kotibi; ishning nomi va raqami; ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko‘maklashayotgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar; sudning taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirganligi; ushbu moddaning 5-bandida ko‘rsatilgan shaxslarga sud chaqiruv qog‘ozlari va boshqa xabarnomalar topshirilganligi to‘g‘risidagi hamda ular sud majlisiga kelmaganligining sabablari haqidagi ma’lumotlar; raislik qiluvchining barcha farmoyishlari va sudning alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqmasdan chiqargan ajrimlari; ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari; sudga taqdim etilgan barcha yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar; ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning o‘z xulosalarini og‘zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning tushuntirishlari, ashyoviy va yozma dalillarni ko‘zdan kechirishga taalluqli ma’lumotlar; sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri; sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o‘qib eshittirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi belgilangan.

Sud majlisi audio - yoki videoyozuvga olingan taqdirda, sud majlisi bayonnomasiga sud majlisida yozib olish texnika vositalaridan foydalanilganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilishi, sud majlisining bayonnomasi audio - va videoyozuv vositalaridan foydalangan holda to‘xtovsiz yozib borilishi, audio - va videoyozuv saqlanayotgan elektron yoki boshqa manbalar sud majlisi bayonnomasiga yoki alohida protsessual harakatlarni bajarish haqidagi bayonnomaga qo‘sib qo‘yilib, unga tegishli yozuv kiritilishi belgilangan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 17-bobiga kelishuv bitimini tuzish bosqichlari to‘g‘risida yangi moddani kiritib, yarashuv protsessini ochish (yarashtiruvchi, taraflarning kirish so‘zi); nizoning holati va taraflar qiziqishlarining bayoni; taraflar muhokamasi uchun savollarni shakllantirish; sud yarashtiruvchisi (sud yarashtiruvchisini joriy qilish haqida takliflar ham berildi) ning taraflar va ularning vakillari bilan individual suhbati; nizoni hal qilish va yarashuvga erishish uchun taraflar tomonidan takliflarni ishlab chiqish; yarashtiruvning natijalarini rasmiylashtirish, shu jumladan kelishuv bitimini tuzish, da‘vodan voz kechish, da‘voni

tan olish va boshqalar; sud yarashuvini yakunlash bosqichlarini belgilash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bundan tashqari, protsess ishtirokchilariga qulaylik yaratib, ushbu kodeksning 226-moddasiga sud majlisida kelishuv bitimini og‘zaki shaklda tuzishga ham yo‘l qo‘yilishi tartibini belgilash maqsadaga muvofiq bo‘lar edi.

Barchaga ma’lumki, sud majlisi bayonnomasini tayyorlashga qonunchilik tomonidan doim sud protsessining muhim qismi sifatida, sud hujjatlarining mazmuni ham ifodalangan bayonnomaga esa sud ishining ajralmas qismi sifatida qaralgan. Sud majlisi bayonnomasi sud majlisining tarkibi va qanday olib borilgani haqidagi ma’lumotlarni o‘zida ifodalaydigan yagona manba hisoblanadi. Shu sababli fuqarolik protsessual kodeksida bayonnomma bilan bog‘liq barcha jixatlar to‘liq tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 277 moddasidan ko‘rinib turganidek, Respublikamizda sud majlisi bayonnomasini texnika vositalari yordamida yuritishning huquqiy asoslari to‘liq belgilangan. Shundan kelib chiqib, barcha fuqarolik sudlarida sud majlislari belgilangan texnika vositalari yordamida qayd qilib borilsa, ham taraflarning ham sudning manfaatlariga muvofiq bo‘lar edi.

Amaliyotda protsess ishtirokchilari tomonidan tilxat yoki ariza yozishdan bosh tortish holatlari ham uchraydi. Tilxat yoki ariza yozish, uni imzolash sud protsessi ishtirokchisining huquqi bo‘lib, ularning ko‘rsatmalarini texnika vositalari yordamida yozib olinishi protsess ishtirokchilari va sud xodimlariga qulaylik yaratish bilan birga, taraflarning sudda bildirgan fikr-mulohazalarini to‘g‘ri va to‘liq qayd qilinishiga ko‘maklashadi. Tomonlar kelishuvga erishgandan so‘ng, ular odatda uni tasdiqlash uchun sudga taqdim etadilar. Keyin sud qonuniylik va adolatni ta‘minlash uchun shartlarni ko‘rib chiqadi. Tasdiqlangandan so‘ng, kelishuv sud qaroriga aylanadi va uni ijro etilishi mumkin bo‘ladi. Ushbu rasmiylashtirish jarayoni sud tizimi doirasida nizoni tuzilgan va tan olingan hal etishni ta‘minlab, shartnomaga huquqiy kuch qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi.president.uz>lists>view;
4. "O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida"gi 2023 yil 14 martdagi CQ-702-IV-сонли qaror